

GIYOHVANDLIK VOSITALARINI NOQONUNY O‘TKAZISHGA QARSHI KURASHNING HUQUQIY ASOSLARI

Sayidov Ilhom G‘ulomovich

*O‘zbekiston Respublikasi Ichi Ishlar Vazirligi Akademiyasi Saf qismi otryad
komandirining tarbiyaviy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari, leytenant*



Annotatsiya. Maqolada tezkor bo‘linmalarining giyohvandlik vositalarini noqonuniy aylanishiga qarshi kurash faoliyatining milliy qonunchilik asoslari, ularning mazmun-mohiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Giyohvandlik vositalari, tezkor-qidiruv faoliyati, tezkor-qidiruv tadbirlari

KIRISH

Respublikamizda iqtisodiy va jamoat xavfsizligini ta‘minlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylanib bormoqda. Jumladan, 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasidagi “Mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish” nomli 2-ustuvor yo‘nalishida 17-maqсад sifatida tezkor- qidiruv va tergov faoliyati ustidan nazoratni kuchaytirishning ta’sirchan mexanizmlarini joriy etish orqali huquqni muhofaza qiluvchi organlarning yangi qiyofasini shakllantirish va ularning faoliyatini xalq manfaatlarini, inson qadr- qimmatini, huquq va erkinliklarini samarali himoya qilishga yo‘naltirish vazifalari belgilangan [1].

ASOSIY QISM

Giyohvandlik vositalarini noqonuniy o‘tkazish jinoyatining ijtimoiy xavflilik darajasi yuqori bo‘lib, asosan uyushgan guruhlar tarkibida, puxta niqoblangan, murakkab jinoiy sxemalardan foydalangan holda sodir etilib, davlatning iqtisodiy asoslari va jamoat xavfsizligiga tajovuz qiladi. “Katta miqdordagi narkotiklarni, shu jumladan ularning O‘zbekiston Respublikasi hududi orqali olib o‘tishga mo‘ljallanganlarini fosh etish hollari ortmoqda. Bu jinoyatlardan aksariyati boshqa mamlakatlardagi jinoiy olam bilan aloqasi bo‘lgan uyushgan guruxlar tomonidan, shuningdek maxfiy joylardan va texnika vositalaridan foydalangan holda sodir etilmoqda”.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT)ning giyohvand vositalar va jinoyatchilik bo‘yicha boshqarmasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2021 yilda Afg‘onistonda 6800 tonna

opium yetishtirilgan bo'lib, uni qayta ishlash natijasida 320 tonnadan ziyod heroin olingan bo'lishi mumkin. Giyohvand vositalar industriyasi ko'lami haqida gapirilganda, Afg'onistonda har yili bunday vositalar yetishtiruvchi barcha boshqa mamlakatlar ulushidan ko'proq mahsulot yetishtiriladi. Hisobotga ko'ra, 2021 yilda Afg'oniston opiatlar savdosidan 1,8 mlrd dollardan 2,7 mlrd dollargacha miqdorda daromad olgan. O'z navbatida, giyohvandlik vositalarini noqonuniy o'tkazishga oid qayd etilgan jinoyatlar miqdori 30,6 foizga (1751 tadan, 2287 tagacha), bu kabi jinoyatlarni sodir etgan shaxslarning soni esa 6 foizga, shu jumladan, bunda chet el fuqarolarining ulushi 19,2 foizga oshgan. Olib qo'yilgan giyohvand vositalarning umumiy miqdori 21,9 foizga (2020 yilda 48776,9 tonna, 2021 yilda 59458,9 tonna) shu jumladan heroin 82,1 foizga va opiy 41,5 foizga oshgan. "Eng achinarlisi, giyohvandlik og'ir jinoyatlarning sodir etilishiga, oilalar va millat genofondining buzilishiga sabab bo'lmoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra dunyoda 500 milliondan ortiq odam giyohvandlik dardiga yo'liqqan. Uning aksariyat qismini 30 yoshgacha bo'lganlar tashkil etmoqda. Buning oqibatida har yili 200 mingdan ortiq kishi hayotdan ko'z yumadi. Shu bilan birga, jahonda sodir etilayotgan jinoyatlarning 57 foizi giyohvandlar hissasiga to'g'ri keladi".

Giyohvandlik vositalarini noqonuniy o'tkazishga qarshi kurashish faoliyati bir qator qonunlar orqali tartibga solinib, bu boradagi tezkor-qidiruv munosabatlarini tartibga solishda O'zbekiston Respublikasining "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi Qonuni muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur Qonunda tezkor-qidiruv faoliyati (keyingi o'rinlarda – TQF)ning umumiy tartibi, asosiy qismi, tezkor-qidiruv tadbirlari (keyingi o'rinlarda – TQT) o'tkazish shart-sharoitlari va ularni rasmiylashtirish tartibi, TQFni amalga oshirishga mas'ul organlar ro'yxati, ularning huquq va majburiyatlari, ijtimoiy va huquqiy himoyalari, fuqarolarning TQFni amalga oshirayotgan organlarga ko'magi tushunchasi, ularning ijtimoiy va huquqiy himoyasi, TQFning moliyaviy ta'minoti belgilab berilgan, TQF ustidan nazorat qilish masalalari mustahkamlangan.

Qonun qabul qilingan kunga qadar huquqni muxofaza qilish faoliyatining ko'rinishi sifatida TQFni amalga oshirish mexanizmi ochib berilmagan holda bir qator qonunchilik hujjatlarida, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (eski tahririning 121-moddasi), Jinoyat-protsessual kodeksi (eski tahririning 339- moddasi) "Prokuratura to'g'risida"gi (4, 8, 28 va 31-moddalar), "Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida"gi (4-modda birinchi qismi), "Davlat bojxona xizmati to'g'risida"gi (7-modda) qonunlar, Jinoyat ijroiya kodeksi (68-modda) va boshqalarda aks ettirilgan edi.

O'zbekiston Respublikasining "Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to'g'risida"gi Qonuni giyohvandlik vositalari, ularning analoglari, psixotrop moddalar va prekursorlarning muomalada bo'lishiga oid ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi hamda ularning qonunga xilof ravishda muomalada bo'lishiga monelik qilish, fuqarolar

sog‘lig‘ini saqlash hamda jamiyat va davlat xavfsizligini ta‘minlashni maqsad qilib qo‘yadi. Uning 3-moddasida giyohvandlik (narkotik) vositalari, psixotrop moddalar, prekursorlar va giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning analoglari asosiy tushunchalarga tegishli ta‘riflar berilgan. Qonunning 6-moddasidaga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasida giyohvandlik vositalarining muomalada bo‘lishi bilan bog‘liq faoliyatning asosiy turlari: giyohvandlik vositalarini olib kirish (olib chiqish), taqsimlash, ishlab chiqish, ishlab chiqarish, tayyorlash, yo‘q qilish, shuningdek tarkibida giyohvandlik moddasi bo‘lgan o‘simliklarni yetishtirish davlat monopoliyasi hisoblanadi.

Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni olib kirishga (olib chiqishga) litsenziya, shuningdek, olib kirish (olib chiqish) huquqi to‘g‘risida maxsus vakolatli organ tomonidan beriladigan sertifikat bo‘lgan taqdirda yo‘l qo‘yiladi. Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni maxsus vakolatli organ ruxsatisiz O‘zbekiston Respublikasi hududi orqali tranzit tarzida o‘tkazish taqiqlanadi.

XULOSA VA MUNOZARA

Yuqorida qayd etilgan huquqiy asoslar giyohvandlik vositalarini noqonuniy o‘tkazishga qarshi kurashishda tezkor bo‘linmalar faoliyatini tartibga solish hamda ularning o‘zaro va boshqa organlar bilan hamkorligini tashkil etish vazifasini hal etishga qaratilgan. Shu bois, tezkor bo‘linmalarining mazkur sohadagi faoliyatining huquqiy asoslarini takomillashtirish va bu boradagi hamkorlik samaradorligini yanada oshirish masalalari hozirgi kundagi dolzarb vazifalar qatoriga kiradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son Farmoni
2. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. 2023
3. *Mahmudov B.Sh.* Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning qonunga xilof ravishda o‘tkazish jinoyatini oldini olishning ustuvor yo‘nalishlari // «SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal ISSN: 2181- 1601// Volume: ISSUE: 6.
4. *Axmedov A.* 26 iyun – xalqaro giyohvandlikka qarshi kurash kuni. // Adliya vazirligi “Adolat” milliy huquqiy axborot markazi / info-adolatmarkazi/uz